

MAKTABGACHA TA'LIMDA TABIIY VA BADIY-ESTETIK TARBIYANING INTEGRATSIYASIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna

Samarqand davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich va Maktabgacha ta'lim
nazariyasi kafedrası assistenti UDK:
373.3
dilnozagaffurova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiiy va badiiy-estetik didni shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyasini amaliy qo'llash usullari, STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llashning bolalarda muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati, **o'z-o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish, jamoada faol muloqotni shakllantirish usullari** haqida yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается практическое применение образовательной технологии STEAM в формировании природного и художественно-эстетического вкуса у детей дошкольного возраста, значение образовательной технологии STEAM в развитии важных качеств и навыков у детей, формировании уверенности в себе, а также методы формирования активного общения в коллективе.

Abstract: This article discusses the practical application of STEAM educational technology in the formation of natural and artistic-aesthetic taste in preschool children, the importance of STEAM educational technology in the development of important qualities and skills in children, the formation of self-confidence, and methods for forming active communication in the team.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bola, estetik rivojlanish, badiiy estetik tarbiya, tabiiy estetik tarbiya, go'zallik, Estetik did, STEAM va badiiy-estetik tarbiya o'rtasidagi integratsiya.

Ключевые слова: дошкольник, эстетическое развитие, художественно-эстетическое воспитание, естественно-эстетическое воспитание, красота, эстетический вкус, интеграция STEAM и художественно-эстетического воспитания.

Keywords: preschool child, aesthetic development, artistic aesthetic education, natural aesthetic education, beauty, Aesthetic taste, integration between STEAM and artistic-aesthetic education.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydilar, tasvir mohiyatini tushunadilar. Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Tevarak-atrofdagi go'zallikka, san'atga, badiiy va o'yin faoliyatining har xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllanadi.

Estetika ko'proq san'at, tabiat, dizayn, atrof muhitning go'zalligi bilan bog'liq. Estetika bir tomondan, estetik anglashning barcha jihatlarini (estetik hissiyot, estetik zavq, estetik did) ikkinchi tomondan, estetik xususiyatlarni — go'zallikni o'z ichiga oladi. Nafosat estetikaning predmeti sifatida qabul qilinadi. Estetik tarbiya - bolalarni tabiat go'zalliklarini anglash, idrok etishga

o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, ular tomonidan go'zallikni yaratish qobiliyatlarini rivojlanlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Bolada go'zallikni, san'atni, ranglarni, shakllarni va ularning uyg'unligini qadrlashni rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Estetik did murakkab va ko'p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijodkorligi orqali namoyon bo'ladi. Estetik did voqealarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi orqali ifoda topadi. Estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg'araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg'ular bilan ish ko'radi, ya'ni hayot go'zalliklari va voqealarni his eta bilish, voqeali to'qnashuvlarda farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Estetik did insonlarning dunyoqarashi, ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq ko'rinadi. Bolalarda estetik didni shakllantirib borish, uni turli bachkanalik va kamchiliklardan forig' etish "Estetik tarbiya" ning vazifasi hisoblanadi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, ijtimoiy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiyaning mohiyati shundan iboratki, u go'zallikka bo'lgan munosabatni qaror toptiradi. Go'zallikka bo'lgan tuyg'uni rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Go'zallik bu, hayotning o'zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir. Bolalar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. *Kichik yoshda "barcha bolalar istisnosiz rasm soluvchilardir"* (K.D.Ushinskiy), *"har bir bola - shoir"* (V.Suxomlinskiy).

Bolalarda tabiiy estetik tarbiya – bu bolani tabiat go'zalligi, tabiatdagi oddiy narsalarning estetik jihatlari va tabiat bilan uyg'unlikni qadrlashga o'rgatish jarayoni. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy-estetik tarbiya – bu, ularning tasavvuri, estetik didi, go'zallikni ko'ra olish va uni qadrlash hamda o'z ijodiy g'oyalarida go'zallikni ifodlay olish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Badiiy so'zi san'at va ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni ifodalaydi. Bu so'z ko'pincha san'at asarlarida go'zallik va hissiyotlarni ifodalanishi haqida gapirganda ishlatiladi.

STEAM va badiiy-estetik tarbiya o'rtasidagi integratsiya: S - Science (Ilm): ranglarning uyg'unligi, tabiatdagi shakllar, tovushlar va ularning qonuniyatlarini kuzatish orqali bolalarda ilmiy-estetik qiziqish uyg'otiladi. T - Technology (Texnologiya): raqamli vositalardan (interaktiv doska, multimediali dasturlar) foydalanib, bolalarning musiqiy, tasviriy yoki teatr faoliyatini boyitish. E - Engineering (Muhandislik): qurilish-konstruktor o'yinlari, qo'l mehnati, turli shakllardan obrazlar yasash orqali estetik tafakkurni rivojlantirish. A - Art (San'at): rasm, haykaltaroshlik (loy ishi) orqali ijodkorlikni rag'batlantirish. M - Mathematics (Matematika): shakllarni badiiy ijodda qo'llash orqali estetik idrokni kengaytirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiiy va badiiy-estetik didni shakllantirishda STEAM ta'lim texnologiyasini amaliy qo'llash usullari: Tasviriy san'at mashg'ulotlarida: Geometrik shakllardan foydalanib rasm chizish, ranglarni aralashtirib yangi ranglar yaratish. Konstruktor o'yinlarida: Qog'oz, lego yoki yog'och bo'laklardan inshootlar qurib, ularni estetik bezash. Tabiatni o'rganishda: Gullarning rang-barangligi, barglarning shakllari, qushlarning ovozlari orqali go'zallikni his etish. Integrallashgan loyihalarda: Masalan, "Men sevgan shahar" mavzusida bolalar rasm chizishadi (Art), qurilish maketini yasashadi (Engineering), shakl va o'lchamni hisoblashadi (Math), tabiat manzaralarini o'rganishadi (Science), taqdimot qilishda multimedia vositalaridan foydalanishadi (Technology).

Faoliyatga STEAM yondashuvning afzallik tomoni: mavzular muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi uchun bir vaqtni o'zida ham aqliy faoliyat birga ham amaliy faoliyatning uyg'unligidir. Maktabgacha



ta'limda faoliyatning yetakchi turi o'yin hisoblanadi, lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, bolalarning yetakchi faoliyat turi bu tajriba hisoblanadi. STEAM faoliyatida bolalarda - ixtirochilik, kashfiyotchilik, yaratuvchilik, analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi. Pedagogik jarayonga STEAM yondashuv ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Finlandiya, Yaponiya, Korea, Germaniya, Singapur, Rossiya maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida samarali foydalanib kelinadi.

Bolalarni tabiiy va badiiy estetik tarbiyalashda rivojlantirishda Art faoliyatining ahamiyati shundaki, tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bolada his-tuyg'uni, go'zallikka bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining tarkibiy qismi hisoblanadi. Tasviriy faoliyatning asosiy vazifasi *tevarak-atrofnii obrazli aks ettirish* hisoblanadi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etadi. Biror predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan kuzatib, tanishib chiqqan bo'lishi, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilishi kerak bo'ladi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Tasviriy faoliyatda bolaning badiiy ijodiy o'sishi amalga oshiriladi. Bu obrazli fikr yuritish, obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi.



Tasviriy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo'lgan ishlar: tabiatga sayr, fasllar almashishida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofnii kuzatishda paydo bo'luvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalash mumkin. Bolaning integrativ fazilatlarini shakllantirishda rasm chizish katta ahamiyatga ega. Badiiy faoliyat bolaning badiiy estetik madaniyatini shakllantirishda ajoyib vositadir. Bundan tashqari, ish paytida bola o'rganadi, xatti-harakatlarini boshqaradi va harakatlarini rejalashtiradi. Chizish va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa muhimdir. Rasm chizish bolalarning estetik didini shakllantirish bilan birgalikda aqliy qobiliyatlarini, xotirasini, diqqatini rivojlantiradi, bolalarni fikrlash va tahlil qilishga, o'lchash va taqqoslashga, tuzish va tasavvur qilishga o'rgatadi. Va bu bolaning qiziquvchan va faol bo'lishiga yordam beradi. Vizual faoliyat bolada lug'at va izchil nutqning shakllanishiga ta'sir qiladi. Atrofdagi olam obyektlarining xilma-xil shakllari, har xil o'lchamlar, rang-barang ranglar lug'atning boyitilishiga hissa qo'shadi. An'anaviy bo'lmagan chizish texnikasidan foydalanish ijodkorlikning kollektiv shaklini qo'llash imkonini beradi. Bu bolalarni birlashtiradi, muloqot madaniyati ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolalar bilan amaliy tasviriy faoliyatda ertak tasvirlaridan foydalanish mumkin, chunki ertak bola ongi uchun eng qulay materialdir. U tasavvurni rivojlantirishga va asosiy axloqiy tushunchalarni (yaxshi, yomon) o'zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, tasviriy san'atga individual tushunchalarni kiritadi. Bola odamlar va hayvonlarning turli xil hissiy holatlari tasvirlangan san'at asarlariga hissiy munosabatda bo'lishni boshlaydi. Bu rivojlanishga hissa qo'shadi hissiy sezgirlikni oshiradi. Bolalar g'oya ustida o'ylashni, vizual vositalarni tanlashni rag'batlantirishni, rasmlarda mustaqil ravishda badiiy tasvirlarni yaratishni, maqsadlarni qo'yishni va ularni amalga oshirishni o'rganadilar.

Badiiy-estetik rivojlanish yo'nalishidagi ishlar bolalarning har tomonlama aqliy rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularsiz atrofdagi hayotning go'zalligini va uning turli xil tabiatda aks etishini bilib

bo'lmaydi. Badiiy va ijodiy faoliyatda estetik idrok, obrazli tasvirlar, tasavvur, fikrlash, diqqat, iroda shakllanadi. Estetik tarbiya insonning asosiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturi "Ilk qadam". — Toshkent: MMTV, 2020.
2. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyxo'jayeva // Estetika asoslari // Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Ikkinchi nashr. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent.,2007. 207-b.
3. Gafurova Dilnoza Salokhiddinovna. Advantages of using steam technology in preschool educational organization. – 2023.
4. Gafurova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati. O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/5/1] ISSN 2181-7324 94-96 bet.
5. Karimova, R. Bolalarda badiiy-estetik tarbiyani rivojlantirish metodikasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Комарова, Т. С. **Эстетическое воспитание дошкольников.** — Москва: ВЛАДОС, 2019.
7. Ксенофонтова, М. Н. **Интеграция художественно-эстетического развития и инженерного мышления детей.** — Москва, 2021.
8. Nishonova, S. Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni shakllantirishning nazariy asoslari. — "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 2022.
9. Филиппова, Т. А. **Художественно-творческая деятельность в ДОУ.** — Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2018.
10. Yakman, G. **STEAM Education Framework and Artistic Integration.** — STEAM Education Journal, 2010.